



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
IJTIMOIY HIMOYA MILLIY AGENTLIGI
DIREKTORI**

M.M.TASHXODJAYEV

S.S.ABDULLAYEV

J.I.ABRUYEV

S.Sh.Rasulev

Y.G.TEN

Sh.S.Abdullayev

U.U.Sharifxodjayev

M.A.Niyazov

**Ногиронлиги бўлган шахсларни реабилитация қилиш ва
протезлаш миллий маркази**

ИХМА Навоий вилояти бошқармаси

ИХМА Жиззах вилояти бошқармаси

ИХМА Самарқанд вилояти бошқармаси

ИХМА Қорақалпоғистон Республикаси бошқармаси

ИХМА Андижон вилояти бошқармаси

ИХМА Бухоро вилояти бошқармаси

ИХМА Қашқадарё вилояти бошқармаси

ИХМА Наманган вилояти бошқармаси

ИХМА Тошкент вилояти бошқармаси

ИХМА Сирдарё вилояти бошқармаси

ИХМА Сурхондарё вилояти бошқармаси

ИХМА Фарғона вилояти бошқармаси

ИХМА Хоразм вилояти бошқармаси

ИХМА Тошкент шаҳар бошқармаси

1.Ma'lumot va ishd a qo'llash uchun

M.A.Niyazov

Ногиронлиги бўлган шахсларни реабилитация қилиш ва
протезлаш миллий маркази

- 2.Belgilansinki:a) reabilitatsiya markazlarida ambulator reabilitatsiya xizmatlari Ambulator va bolalar reabilitatsiya bo'limiga ajratilgan vrach – reabilitolog hamda jismoniy tarbiya yo'riqchisi lavozimidagi xodimlar tomonidan ko'rsatiladi;b) reabilitatsiya xizmatlari multidissiplinar yondashuv asosida reabilitatsiya markazlarida tuziladigan reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturiga muvofiq ko'rsatiladi;d) hududiy reabilitatsiya markazlarining direktorlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi (keyingi o'rinlarda – Milliy markaz)ning bosh vrachi tomonidan Agentlik bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

M.A.Niyazov

Ногиронлиги бўлган шахсларни реабилитация қилиш ва
протезлаш миллий маркази

ИХМА Навоий вилояти бошқармаси

ИХМА Жиззах вилояти бошқармаси

ИХМА Самарқанд вилояти бошқармаси

ИХМА Қорақалпоғистон Республикаси бошқармаси

ИХМА Андижон вилояти бошқармаси

ИХМА Бухоро вилояти бошқармаси

ИХМА Қашқадарё вилояти бошқармаси

ИХМА Наманган вилояти бошқармаси

ИХМА Тошкент вилояти бошқармаси

ИХМА Сирдарё вилояти бошқармаси

ИХМА Сурхондарё вилояти бошқармаси

ИХМА Фарғона вилояти бошқармаси

ИХМА Хоразм вилояти бошқармаси

ИХМА Тошкент шаҳар бошқармаси

**3. Quyidagilar: Nogironligi bo‘lgan shaxslarni
reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi
to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq; Nogironligi
bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash
hududiy markazlari to‘g‘risida namunaviy nizom
(keyingi o‘rinlarda – namunaviy nizom) 2-ilovaga
muvofiq; Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya
qilish va protezlash milliy markazi hamda uning hududiy**

markazlarida reabilitatsiya xizmatlarini ko'rsatishning vaqtinchalik tartibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ногиронлиги бўлган шахсларни реабилитация қилиш ва протезлаш миллий маркази

4.2. Milliy markaz bosh vrachi (T.Kayumov) hududiy reabilitatsiya markazlarining direktorlari bilan birgalikda: reabilitatsiya markazlari ambulator reabilitatsiya xizmatlari ko'rsatib borilishini ta'minlash; ikki hafta muddatda tegishliligi bo'yicha namunaviy nizomga muvofiq hududiy reabilitatsiya markazlarining nizomlarini tasdiqlash;

Muddat: 2025-yil 14-avgust

Ногиронлиги бўлган шахсларни реабилитация қилиш ва протезлаш миллий маркази

4.3. bir oy muddatda Reabilitatsiya markazlarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning lavozim yo'riqnomalari hamda vazifalar taqsimotlarini ishlab chiqish va tasdiqlash; tasdiqlangan hamda o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan nizomlarni Agentlikga taqdim etish choralarini ko'rsin.

Muddat: 2025-yil 29-avgust

M.A.Niyazov

5.1. Nogironligi bo'lgan shaxslarning funksionalligini baholash boshqarmasi (M.Niyazov) ikki oy muddatda: Reabilitatsiya markazlari xodimlari faoliyatining samaradorligini baholash hamda baholash natijalaridan kelib chiqib, Ijtimoiy himoya davlat

jamg'armasi mablag'lari hisobidan rag'batlantirib borish tartibini;

Muddat: 2025-yil 30-sentabr

M.A.Niyazov

R.Z.KARIMOV

5.2.Nogironligi bo'lgan shaxslarning funksionalligini baholash boshqarmasi (M.Niyazov) ikki oy muddatda: Raqamli texnologiyalarni joriy etish boshqarmasi (R.Karimov) va Axborot texnologiyalar markazi (S.Tursunov) bilan birgalikda reabilitatsiya markazlarida ko'rsatiladigan barcha xizmatlarni raqamlashtirish bo'yicha "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimida tegishli modulni yaratish yuzasidan texnik talablarni ishlab chiqsin.

Muddat: 2025-yil 30-sentabr

J.SH.ESHBOYEV

6.Ijro nazorati bo'limi (J.Eshboyev) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda Agentlikning tegishli tarkibiy va hududiy bo'linmalariga hamda Reabilitatsiya markazlariga yetkazilishini ta'minlasin.

M.A.Niyazov

7.Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan.

J.SH.ESHBOYEV

8.Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

№10/1-245
30 Iyul 2025



M.P.Olloyorov



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
IJTIMOIY HIMOYA MILLIY AGENTLIGI DIREKTORINING**

BUYRUG'I

2025-yil 29 -iyul

245 -son

**Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash
markazlarining faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-268-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi to'g'risidagi nizomga muvofiq

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida 2024-yil 20-fevral kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 12-sonli bayoni 22-badida tibbiy reabilitatsiya qilish bo'limlariga axborot tizimi orqali nogironligi bo'lgan shaxs yakka tartibdagi reabilitatsiya qilish dasturiga muvofiq oilaviy shifokorlar tomonidan navbat asosida yo'llanishi, o'rinlarning bandligi va bo'sh o'rinlar soni axborot tizimida onlayn tarzda yangilab borilishi belgilanganligi;

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida 2024-yil 13-dekabr kuni 2024-yilda ijtimoiy himoya sohasida amalga oshirilgan ishlar natijadorligi va 2025-yil uchun ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan 60-sonli topshiriqlarda:

Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi hamda uning hududiy markazlari (keyingi o'rinlarda – reabilitatsiya markazlari)da bosqichma-bosqich ambulator reabilitatsiya xizmatlarini joriy etish;

nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish bo'yicha Qashqadaryo tajribasini yaratish vazifalari belgilanganligi;



d) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) direktorining 2025-yil 27-fevraldagi 41-son hamda 2025-yil 27-iyundagi 202-son buyruqlariga asosan reabilitatsiya markazlarida Ambulator va bolalar reabilitatsiyasi bo‘limi uchun qo‘shimcha 7 tadan shtat birliklari kiritilganligi;

e) Agentlik direktorining 2025-yil 15-apreldagi “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni Reabilitatsiya markazlariga yo‘llanma shakllantirish” modulini yaratish to‘g‘risida”gi 117-son buyrug‘iga muvofiq reabilitatsiya markazlariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni yo‘llashning elektron tizimi joriy qilinayotganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Belgilansinki:

a) reabilitatsiya markazlarida ambulator reabilitatsiya xizmatlari Ambulator va bolalar reabilitatsiya bo‘limiga ajratilgan vrach – reabilitolog hamda jismoniy tarbiya yo‘riqchisi lavozimidagi xodimlar tomonidan ko‘rsatiladi;

b) reabilitatsiya xizmatlari multidissiplinar yondashuv asosida reabilitatsiya markazlarida tuziladigan reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturiga muvofiq ko‘rsatiladi;

d) hududiy reabilitatsiya markazlarining direktorlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi (keyingi o‘rinlarda – Milliy markaz)ning bosh vrachi tomonidan Agentlik bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

3. Quyidagilar:

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash hududiy markazlari to‘g‘risida namunaviy nizom (keyingi o‘rinlarda – namunaviy nizom) 2-ilovaga muvofiq;

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi hamda uning hududiy markazlarida reabilitatsiya xizmatlarini ko‘rsatishning vaqtinchalik tartibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Milliy markaz bosh vrachi (T.Kayumov) hududiy reabilitatsiya markazlarining direktorlari bilan birgalikda:

reabilitatsiya markazlari ambulator reabilitatsiya xizmatlari ko‘rsatib borilishini ta’minlash;



ikki hafta muddatda tegishliligi bo'yicha namunaviy nizomga muvofiq hududiy reabilitatsiya markazlarining nizomlarini tasdiqlash;

bir oy muddatda Reabilitatsiya markazlarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning lavozim yo'riqnomalari hamda vazifalar taqsimotlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

tasdiqlangan hamda o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan nizomlarni Agentlikga taqdim etish choralarini ko'rsin.

5. Nogironligi bo'lgan shaxslarning funksionalligini baholash boshqarmasi (M.Niyazov) ikki oy muddatda:

Reabilitatsiya markazlari xodimlari faoliyatining samaradorligini baholash hamda baholash natijalaridan kelib chiqib, Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan rag'batlantirib borish tartibini;

Raqamli texnologiyalarni joriy etish boshqarmasi (R.Karimov) va Axborot texnologiyalar markazi (S.Tursunov) bilan birgalikda reabilitatsiya markazlarida ko'rsatiladigan barcha xizmatlarni raqamlashtirish bo'yicha "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimida tegishli modulni yaratish yuzasidan texnik talablarni ishlab chiqsin.

6. Ijro nazorati bo'limi (J.Eshboyev) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda Agentlikning tegishli tarkibiy va hududiy bo'linmalariga hamda Reabilitatsiya markazlariga yetkazilishini ta'minlasin.

7. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor



M.Olloyorov

**Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy
markazi to'g'risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazining (keyingi o'rinlarda – Markaz) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari, javobgarligi hamda faoliyatini tashkil qilish tartibini belgilaydi.

2. Markaz nogironligi bo'lgan shaxslarni, shu jumladan, nogironligi bo'lgan bolalarni reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturi asosida ularga tibbiy, ijtimoiy, kasbiy reabilitatsiya tadbirlarini amalga oshiruvchi davlat tibbiy-ijtimoiy muassasasi hisoblanadi.

3. Markaz o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi to'g'risidagi nizomga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining buyruqlariga, ushbu Nizomga va boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

4. Markaz davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga hamda blankalarga, mustaqil balansga, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasida milliy va xorijiy valyutalarda shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga ega bo'ladi.

5. Markazning rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to'liq nomi – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi, qisqartirilgan nomi – Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi;

b) rus tilida:

to'liq nomi – Национальный центр реабилитации и протезирования лиц с инвалидностью Национального агентства социальной защиты при Президенте

Республики Узбекистан, qisqartirilgan nomi – Национальный центр реабилитации и протезирования лиц с инвалидностью.

d) ingliz tilida:

to'liq nomi – National Center for Rehabilitation and Prosthetics for Persons with Disabilities of the National Agency for Social Protection under the President of the Republic of Uzbekistan, qisqartirilgan nomi – National Center for Rehabilitation and Prosthetics for Persons with Disabilities.

6. Markaz manzili ikkita hududda joylashgan (pochta manzili):

birinchi manzil – 100050, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Darxontepa ko'chasi, 5-A uy;

ikkinchi manzil – 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Yashnobod tumani, S. Azimov 3-berk ko'chasi, 20-uy.

Markazning yuridik manzili O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Darxontepa ko'chasi, 5-A manzili (birinchi manzil) hisoblanadi.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (keyingi o'rinlarda – Muassis) Markazning muassisi hisoblanadi.

8. Markaz o'z nomidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi va amalga oshirishi, majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi, nizolarni hal etishda boshqa organlarda vakillik qilishi mumkin.

9. Markaz Muassisning tizimiga kiradi hamda o'z faoliyati to'g'risida unga hisobdordir.

Uning faoliyatini muvofiqlashtirish, umumiy rahbarlik qilish va uni nazorat qilish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va xodimlarining malakasini oshirishni tashkil etish Muassis tomonidan amalga oshiriladi.

2-bob. Markazning asosiy vazifalari va funksiyalari

10. Markazning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

nogironligi bo'lgan shaxslarni tibbiy, ijtimoiy, kasb bo'yicha reabilitatsiya qilish va protezlash;

nogironligi bo'lgan shaxslarni tibbiy, ijtimoiy va kasb bo'yicha reabilitatsiya qilish, protezlash muammolari bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar o'tkazish;

nogironlikka olib keladigan asosiy kasalliklarga chalingan nogironligi bo'lgan shaxslarga xizmat ko'rsatish davrida multidissiplinar reabilitatsiya jamoasi tomonidan reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturlarini ishlab chiqish;

Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash hududiy markazlari (keyingi o'rinlarda – hududiy markazlar) faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga ilmiy, amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish;

nogironlikning holati va sabablarini tizimli asosda chuqur tahlil qilish, uning oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish;

hududiy markazlari va davolash-profilaktika muassasalari bilan birgalikda nogironligi bo'lgan shaxslarni tibbiy-ijtimoiy hamda kasb bo'yicha reabilitatsiya qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

nogironligi bo'lgan shaxslarga faol hayot faoliyati, o'qish va mehnat faoliyati imkoniyatini olishda tavsiyalar berish.

11. Markaz o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

ichki, asab, tayanch-harakat tizimidagi kasallik va turli jarohat asoratlari bo'lgan nogironligi bo'lgan shaxslarda reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturlariga muvofiq tibbiy, ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiya xizmatini ko'rsatadi;

protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatadi;

tayanch-harakat tizimi a'zolari kasalliklarida rekonstruktiv-tiklash jarrohlik amaliyotlarini o'tkazadi;

ijtimoiy (ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-pedagogik maslahat, ijtimoiy moslashuv) va kasbiy (kasbga yo'naltirish, kasbga o'qitish yoki qayta o'qitishga maslahat berish) reabilitatsiya tadbirlarini amalga oshiradi;

tibbiy-texnik komissiya (jamoat) tashkil qilgan holda protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalariga muhtoj nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy ko'rsatmalarni aniqlashda tegishli muassasalarga tavsiya va xulosalar beradi;

protez-ortopediya moslamalarini tayyorlashda xorijiy davlatlar tajribasi, zamonaviy texnologiyalar, ish uslublari va mahalliy xom-ashyo butlov materiallaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini o'rganadi, yangi tayyorlangan buyumlarni klinik sinama tekshiruvlardan o'tkazish, tegishli texnik-konstruktorlik hujjatlarini tayyorlash, tasdiqlatish (patent olish) hamda protez-ortopediya moslamalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar amaliyotiga taqdim etish bo'yicha tavsiyalar beradi;

ichki, asab, tayanch-harakat tizimidagi kasallik va turli jarohat asoratlari bo'lgan nogironligi bo'lgan shaxslarni (shu jumladan, bolalarni) tibbiy, ijtimoiy, kasb bo'yicha reabilitatsiya qilishning yangi uslub va texnologiyalarini ilmiy-uslubiy jihatdan ishlab chiqadi, bu borada hududiy markazlar

va davolash-profilaktika muassasalari bilan birgalikda chora-tadbirlarni yaratadi, ularni amaliyotga joriy etish orqali ko'rsatiladigan reabilitatsiya xizmatini takomillashtirish hamda hududiy markazlar faoliyatida qo'llash uchun tavsiya etadi;

nogironlikka olib keluvchi ichki, asab, tayanch-harakat tizimi asosiy kasalliklarida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

Markazda nogironligi bo'lgan shaxslar, jumladan nogironligi bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy, ijtimoiy, kasb bo'yicha reabilitatsiya tadbirlarini muntazam ravishda monitoring qilib boradi, tahlillar o'tkazadi va umumlashgan natijalarini o'rnatilgan tartibda Agentlikka taqdim etadi;

hududiy markazlar faoliyatini o'rganadi va tahlil qiladi, ularga ilmiy-uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi, natijalari bo'yicha Agentlikka xulosa va takliflar kiritadi;

nogironlik holatini chuqur tahlil qilish va uni oldini olish bo'yicha ilmiy jihatdan asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqadi va amaliyotga joriy etadi;

nogironligi bo'lgan shaxslarni turmushdagi faoliyatlarida (oilal, o'qish va mehnatdagi) o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanishlarida tavsiyalar beradi;

nogironlikka olib keluvchi kasalliklarda nogironlik belgilanishiga qadar reabilitatsiyaning erta tiklanish davrida reabilitatsiya jarayonini tashkil qilish bo'yicha sog'liqni saqlash tizimi muassasalari bilan birgalikda ishlash;

reabilitatsiya samarasini baholash va monitoring qilishning yagona tizimini tashkil qilish;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni bajaradi.

3-bob. Markazning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi

12. Markaz quyidagi huquqlarga ega:

o'z vazifa va funksiyalari doirasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

Muassisning tegishli ma'lumotlar bazalaridan belgilangan tartibda foydalanish;

o'ziga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish uchun belgilangan tartibda turli tashkilotlar, shu jumladan mahalliy va xalqaro tashkilotlar hamda xorijiy davlatlarning grant mablag'larini jalb qilish;

qonunchilikda belgilangan tartibda pullik xizmatlarni ko'rsatishdan tushgan daromadlar doirasida Markaz xodimlarining mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish miqdorlarini qonunchilikda belgilangan me'yorlar doirasida belgilash;

Muassis bilan kelishilgan holda o'z faoliyatini rivojlantirish, uning moddiy-texnika bazasini yanada kuchaytirish;

o'z faoliyatini amalga oshirish hamda faoliyatga doir ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish hamda joriy etish maqsadida tegishli vazirliklar, idoralardan nogironlik masalalari bo'yicha zarur ma'lumotlarni olish;

o'z ehtiyoj va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda xodimlarini o'zining mablag'lari hamda jalb qilingan boshqa mablag'lar hisobidan o'qitish, malakasini oshirish, qayta tayyorlash;

o'rnatilgan tartibda nogironligi bo'lgan shaxslar tibbiy, ijtimoiy va kasbiy rehabilitatsiyasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini nashr etish;

o'z faoliyati yuzasidan ilmiy o'rganishlar olib borish uchun shartnoma asosida ilmiy muassasalar, olimlar va mutaxassislarni jalb etish;

Markaz faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha tegishli chet el va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

o'z sohasi bo'yicha aholiga (O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, norezident jismoniy shaxslarga) pullik xizmat ko'rsatish;

Markaz qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

13. Markazning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

mazkur Nizomga hamda boshqa qonunchilik hujjatlari bilan yuklangan vazifa va funksiyalarni zarur darajada va samarali bajarish;

davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish;

Agentlikning Hay'at qarorlari va buyruqlarida Markazga yuklatilgan vazifalarni hamda Agentlik rahbariyatining boshqa topshiriqlarini o'z muddatida bajarish;

yillik ish rejani ishlab chiqish va uni belgilangan tartibda tasdiqlash;

Muassisga moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risida hisobotlar taqdim qilish;

tasarrufidagi mol-mulkdan belgilangan maqsadda foydalanilishi va uning lozim darajada saqlanishini ta'minlash;

Markaz zimmasiga qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

14. Markaz o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarning tegishli darajada va samarali bajarilishi, shu jumladan amalga oshiriladigan tibbiy, ijtimoiy va kasbiy rehabilitatsiya tadbirlari sifati uchun javob beradi.

4-bob. Markaz tuzilmasi va faoliyatini tashkil etish

15. Markazga Agentlik direktori tomonidan ushbu lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan bosh vrach rahbarlik qiladi.

Bosh vrach, Markaz oldiga qo'yilgan vazifalar va funksiyalarni bajarilishiga shaxsan mas'ul etib belgilanadi.

16. Bosh vrach o'rinbosarlari Agentlik direktori bilan kelishilgan holda Markaz bosh vrachi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Bosh vrach bo'lmagan vaqtda uning vakolatlari vazifalar taqsimotiga muvofiq bosh vrach o'rinbosarlaridan biri tomonidan amalga oshiriladi.

17. Markaz xodimlari bosh vrach tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

18. Bosh vrach:

umumiy rahbarlikni amalga oshiradi hamda unga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

o'z o'rinbosarlari va Markazning tarkibiy bo'linma rahbarlari vakolatlarini hamda tarkibiy bo'linmalarining faoliyati uchun ularning javobgarligini belgilaydi;

Nogironligi bo'lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va protezlash hududiy markazlari direktorlarini Agentlik bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi;

o'z vakolatlari doirasida, Markazning barcha xodimlari hamda hududiy markazlar uchun bajarilishi shart bo'lgan buyruqlar, ko'rsatma va topshiriqlar beradi;

Markaz xodimlarining vazifalarini taqsimlaydi;

Markaz xodimlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, intizom buzilganda, intizomiy javobgarlikka tortadi;

xodimlarni ishga qabul qiladi, ular bilan mehnat shartnomalarini (kontraktlarni) tuzadi, o'zgartirish va ularning amal qilishini to'xtatadi;

Markazning tashkiliy va moliyaviy masalalarini hal qiladi;

Markazning ichki ish tartibini va xo'jalik faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarni tasdiqlaydi;

Markazning mol-mulkini boshqarish va tasarruf etish bo'yicha belgilangan tartibda qarorlar qabul qiladi;

qonunchilikka muvofiq Markaz nomidan ish olib boradi, barcha tashkilotlarda uning vakili sifatida qatnashadi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalar beradi;

qonunchilik hujjatlari talablarini bajarishga Markaz xodimlarining mehnat sharoitlarini muhofaza qilish va yaxshilashga, atrof muhitni muhofaza qilish

va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi norma va qoidalarga rioya etilishini ta'minlashga doir tadbirlarini ishlab chiqadi va joriy etadi;

Markazning asosiy faoliyatini takomillashtirish, boshqarishning eng zamonaviy usullarini joriy etish chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ishonchnomalar beradi;

kadrlarni tayyorlash va o'qitish, ularning malakasini oshirish chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

Markaz tomonidan qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini tashkil etadi va nazorat qiladi.

Markazning shtat jadvallari va xarajatlar smetasini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi hamda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish uchun Muassisning hududiy boshqarmasiga kiritadi;

Markazning xodimlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal etadi;

Markazning ichki tartib-qoidalari, odob-axloq qoidalari va mansab yo'riqnomalarini tasdiqlaydi;

Markaz xodimlarini alohida xizmatlari uchun O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari bilan taqdirlash to'g'risidagi takliflarini Muassisa kiritadi;

qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'ladi.

19. Bosh vrach quyidagilar uchun javob beradi:

o'z huquqlarini amalga oshirishda va vazifalarini bajarishda Markaz manfaatlarini ko'zlagan holda harakat qilishi;

budjetga va budjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar, ish haqining o'z vaqtida to'g'ri to'lanishi, mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi barcha talablarning va ularga tenglashtirilgan to'lovlarning to'g'ri to'lanishi;

budjet va budjetdan tashqari mablag'lardan o'z vaqtida samarali foydalanish; davlat siriga oid ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish;

o'z faoliyati bilan bog'liq prognoz ko'rsatkichlari, davriy ish rejalari va faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlari hamda mezonlariga so'zsiz erishilishining ta'minlashi;

faoliyatini rivojlantirish bo'yicha tasdiqlangan dasturlar, chora-tadbirlar rejasi, "yo'l xaritalari" va boshqa dasturiy hujjatlarni samarali amalga oshirilishi;

Markazning xatti-harakatlari (harakatsizligi) bilan, shu jumladan Markazga berilgan davlat mol-mulki yo'qolgan taqdirda, yetkazilgan zarar uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi.

20. Bosh vrach Markaz shtatlar jadvali va xarajatlar smetasi qonunchilikda belgilangan tartibda to'g'ri shakllantirilishiga mas'ul hisoblanadi.

21. Markazning tuzilmasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Agentlik direktori Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda Markaz tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

22. Markazda Bosh vrachning hududiy reabilitatsiya markazlari masalalari bo'yicha o'rinbosari bir vaqtning o'zida Hududiy reabilitatsiya markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish va amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish bo'limi (keyingi o'rinlarda – Bo'lim) boshlig'i vazifasini bajaradi.

5-bob. Markazning moliya-xo'jalik faoliyati

23. Quyidagilar Markaz faoliyatini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan ajratiladigan mablag'lar;

Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq pullik xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan mablag'lar;

vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni tijorat banklarining depozitlariga joylashtirishdan tushadigan daromadlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlarning grantlari;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

24. Markazdagi budjet va xo'jalik mablag'lari hisobidan saqlanadigan umumiy o'rinlar soni taalluqliligi bo'yicha sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya qilgan holda Agentlik tomonidan tasdiqlanadi.

25. Markaz qonunchilik hujjatlarida belgilangan moliyaviy va statistik hisobotlarni yuritadi.

26. Markazning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

27. Markazning shtatlar jadvali Agentlik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan kelishgan holda belgilanadigan namunaviy shtatlarga muvofiq tasdiqlanadi.

28. Markaz shtatlar jadvalini va xarajatlar smetasini belgilangan tartibda tasdiqlaydi hamda Agentlik tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

29. Markaz tomonidan ko'rsatiladigan pullik xizmatlarning narxlari Agentlik bilan kelishilgan holda Markaz tomonidan tasdiqlanadi.

30. Ko'rsatiladigan pullik xizmatlardan tushgan barcha mablag'lar qonunchilikda belgilangan tartibda moddiy-texnika bazani mustahkamlashga hamda tashkilot xodimlarini ijtimoiy himoya qilish, xodimlar ish haqqi va moddiy rag'batlantirish tadbirlariga yo'naltiriladi.

6-bob. Buxgalteriya hisobi va hisobot yuritish

31. Markaz hisobot davri tugagach, tasdiqlangan shakllar bo'yicha hisobotlar tuzadi. Moliyaviy hisobot va unga ilova qilinadigan boshqa hujjatlarni belgilangan muddatlarda Muassisa taqdim etadi.

32. Markaz hujjatlarning saqlanishi va ularni belgilangan tartibda Davlat arxiviga saqlash uchun topshirilishini ta'minlaydi.

33. Tegishli jamg'armalardan ajratilgan pul mablag'larining sarflanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi hisobotlar, har chorak yakuni bo'yicha buxgalteriya balansi Muassisa taqdim etiladi.

34. Markazning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

7-bob. Markaz faoliyatini nazorat qilish

35. Markaz qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda har yili hisobot davri tugagach, Muassisa va boshqa vakolatli organlarga o'z faoliyati to'g'risida hisobot taqdim etadi.

36. Markaz tomonidan budget to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi hamda Muassisning Ichki baholash va audit boshqarmasi tomonidan nazorat qilinadi.

37. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda Muassis Markaz rahbari zimmasiga yuklangan vazifalar samarali bajarilishi yuzasidan ularning faoliyati ustidan muntazam monitoring olib boradi, monitoring natijalariga ko'ra Markaz faoliyati samaradorligiga xolisona baho beradi.

38. Monitoring va baholash yakunlari bo'yicha yuqori ko'rsatkichga erishgan Markaz rahbariyati va xodimlari rag'batlantiriladi yoxud yo'l qo'yilgan kamchiliklari uchun intizomiy javobgarlikka tortiladi.

39. Markazda hujjatlarning saqlanishi va belgilangan tartibda saqlashga berilishi uchun Markaz bosh vrachi javob beradi.

8-bob. Markazning javobgarligi

40. Markaz davlat aktivlarini, shu jumladan, uning tovar-moddiy boyliklari va boshqa mol-mulklarining but saqlanishi bo'yicha moddiy javobgar hisoblanadi.

41. Markaz o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli mulk bilan javob beradi.

42. Markaz Muassisning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi.

9-bob. Yakuniy qoidalar

43. Markaz qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda qayta tashkil etiladi va tugatiladi.

44. Nizomda aks ettirilmagan masalalar yuzasidan vujudga kelgan muammoli vaziyatlar qonunchilik hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

45. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

46. Mazkur Nizomga qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

**Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash hududiy
markazlari to'g'risida
NAMUNAVIY NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Namunaviy nizom (keyingi o'rinlarda – Nizom) nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash hududiy markazlarining (keyingi o'rinlarda – Markaz) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi hamda faoliyatini tashkil qilish tartibini belgilaydi.

2. Markaz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) tizimida o'z faoliyat yo'nalishi bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarga, jumladan nogironligi bo'lgan bolalarga tibbiy, ijtimoiy, kasbiy reabilitatsiya xizmatlarini ko'rsatuvchi davlat muassasasi hisoblanadi.

3. Markaz alohida yuridik shaxs hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga hamda blankalarga, mustaqil balansga, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasida milliy va xorijiy valyutalarda shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga ega bo'ladi.

4. Markaz o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga, Agentlik hamda Agentlikning hududiy boshqarmalari buyruqlari va ko'rsatmalariga, shuningdek, ushbu Nizomga amal qiladi.

2-bob. Markazning asosiy vazifalari va funksiyalari

5. Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:
nogironligi bo'lgan shaxslarni tibbiy reabilitatsiya qilish;
nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish;
mehnatga layoqatli yoshdagi nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatga integratsiya qilishga ko'maklashish.

6. Markaz o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

a) nogironligi bo'lgan shaxslarni tibbiy reabilitatsiya qilish sohasida:

nogironligi bo'lgan shaxslar, jumladan, nogironligi bo'lgan bolalar a'zolarining hamda organizmi tizimlarining buzilgan va (yoki) yo'qolgan funksiyalarini saqlab qolishga, qisman yoki to'liq tiklashga qaratilgan xizmatlar ko'rsatish;

nogironligi bo'lgan shaxslar, jumladan, nogironligi bo'lgan bolalarni jamiyat hayotiga moslashtirish uchun ular organizmining yo'q bo'lgan (tug'ma) va (yoki) rivojlanmagan funksiyalarini shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

Markazda reabilitatsiya tadbirlari o'tkazilgan nogironligi bo'lgan shaxslarning kasallik nozologiyalaridan kelib chiqib, nogironlikka olib kelgan asosiy kasalliklarni tahlil qilish va sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish;

tayanch-harakat tizimidagi turli jarohat asoratlari, ortopedik va boshqa kasalliklarda rekonstruktiv tiklash jarrohlik amaliyotlarini olib borish;

davolash-profilaktika muassasalari bilan birgalikda nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish chora-tadbirlarining samarali usullarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

tibbiy reabilitatsiya jarayonini takomillashtirish maqsadida zamonaviy tibbiyot fani va amaliyoti yutuqlari, ilmiy uslub va uslubiyatlari, texnologiyalarini amaliyotga joriy etish borasida yetakchi klinikalar, jumladan, xorijiy klinikalar hamda respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazlar bilan hamkorlik qilish;

Markazni malakali kadrlar bilan ta'minlash, ularning nazariy va amaliy bilimlarini muntazam ravishda oshirib borish;

b) nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish sohasida:

ijtimoiy reabilitatsiya qilishda nogironligi bo'lgan shaxslar, jumladan, nogironligi bo'lgan bolalarni jismoniy va aqliy imkoniyatlaridan kelib chiqib ularni reabilitatsiya qilishda individual yondashuvni joriy qilish;

nogironligi bo'lgan shaxslarni protez-ortopediya moslamalari, reabilitatsiya qilishning texnik vositalari, maishiy tusdagi moslamalar hamda boshqa texnik vositalaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatish va psixologik tayyorlash;

Markazga murojaat etgan nogironligi bo'lgan shaxslar, jumladan, bolalarning oila a'zolariga tegishli tushuntirish va maslahatlar berish, oila a'zolari o'rtasida nogironligi bo'lgan shaxslarga bo'lgan munosabatni to'g'ri shakllantirish, ularni reabilitatsiya va abilitatsiya tadbirlarini qilishda oila a'zolari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish usullarini ishlab chiqish;

nogironligi bo'lgan shaxslar, jumladan, bolalarni oilaviy-maishiy sharoitga moslashtirish (adaptatsiya), qayta moslashtirish (readaptatsiya) maqsadida psixologik tushuntirish ishlarini olib borish va jamiyatga integratsiyalashuviga erishish;

v) mehnatga layoqatli yoshdagi nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatga integratsiya qilishga ko'maklashish sohasida:

mehnatga layoqatli yoshdagi nogironligi bo'lgan shaxslarning ruhiy va jismoniy rivojlanishini inobatga olib, ularni jamiyatga integratsiya qilishga qaratilgan reabilitatsiya tadbirlarini amalga oshirish;

mehnatga layoqatli yoshdagi nogironligi bo'lgan shaxslarning kelgusidagi mustaqil hayotiy va mehnat ko'nikmalarini shakllantirish tadbirlarini amalga oshirish;

nogironligi bo'lgan shaxslar organizmining funksional holatini inobatga olgan holda, uning mehnatga qiziqishini uyg'otish.

3-bob. Markazning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi

7. Markaz o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

nogironligi bo'lgan shaxslarning holatidan kelib chiqib, zarurat bo'lganda, rehabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

nogironligi bo'lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish hamda ularni jamiyatga integratsiya qilishning samarali usullarini joriy qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan tegishli tashkilotlardan zarur bo'lgan axborot va ma'lumotlarni olish;

aholiga belgilangan tartibda pullik xizmat ko'rsatish;

davlat va nodavlat tashkilotlar bilan belgilangan tartibda hamkorlik qilish orqali nogironlikni oldini olish choralari hamda nogironligi bo'lgan shaxslar rehabilitatsiyasining holati, muammolari va ularning yechimi borasida seminar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni amalga oshirish;

o'z ixtisosligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish maqsadida grantlar olish uchun tanlovlarda ishtirok etish;

Markaz qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin;

Markaz o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishi, taqdim etilgan hujjatlarning xolisona, to'liqligi va qonuniyligi yuzasidan javob beradi.

8. Markazning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

mazkur Nizomga hamda boshqa qonunchilik hujjatlari bilan yuklangan vazifa va funksiyalarni zarur darajada va samarali bajarish;

davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish;

Agentlikning Hay'at qarorlari va buyruqlarida Markazga yuklatilgan vazifalarni hamda Agentlik rahbariyatining boshqa topshiriqlarini o'z muddatida bajarish;

Markaz zimmasiga qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

9. Markaz o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarning tegishli darajada va samarali bajarilishi, shu jumladan amalga oshiriladigan tibbiy, ijtimoiy va kasbiy rehabilitatsiya tadbirlari sifati uchun javob beradi.

4-bob. Markazni boshqarish va uning faoliyatini tashkil etish

10. Markazga Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi tomonidan Agentlik bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan direktor rahbarlik qiladi.

11. Direktor:

Markaz faoliyati uchun javob beradi va rahbarlik qiladi;

Markaz xodimlari ishlarini o'z vakolatlari doirasida tashkil etadi va boshqaradi, Markaz xodimlari tomonidan bajarilishi shart bo'lgan buyruqlar chiqaradi;

Markaz ish tartibi va rejimini, xodimlarning lavozim majburiyatlarini belgilaydi va ularning mehnat qilishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi;

Markaz nomidan o'z faoliyatini olib boradi, Markazning moliya-xo'jalik faoliyatiga rahbarlik qiladi, Markaz nomidan shartnomalar tuzadi, Markaz faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa masalalarni hal qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi talablariga to'laqonli rioya etgan holda "Ish beruvchi" sifatida Markaz xodimlari bilan qonunga asosan va belgilangan tartibda mehnat shartnomalari tuzadi, bekor qiladi, rag'batlantiradi, intizomiy choralar qo'llaydi va boshqa mehnat munosabatlariga oid masalalarni hal qiladi.

12. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni huquqlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa huquqiy normativ hujjatlar talablaridan kelib chiqib markazda statsionar tartibda davolanayotgan hamda ambulator ravishda xizmatlar olayotgan nogironligi bo'lgan shaxslarga Markaz huquqshunosi tomonidan bepul yuridik maslahatlar berilishini ta'minlash, zarur hollarda huquqiy yordam olish uchun tegishli huquqni muhofaza etuvchi organlar yoki boshqa davlat-mahalliy tashkilotlarga yo'naltirish.

13. Markaz direktorining o'rinbosarlari Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi bilan kelishgan holda Markaz direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

14. Markaz faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Agentlik hamda Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi tomonidan amalga oshiriladi.

5-bob. Markazning mol-mulki

15. Asosiy fondlar, shuningdek, boshqa moddiy boyliklar va moliyaviy resurslar Markazning mol-mulkini tashkil etadi.

16. Markaz qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda o'z faoliyatining maqsadlariga, mol-mulkning maqsadiga muvofiq o'ziga birlashtirilgan mol-mulkka

egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi, bunda budget mablag'lari va budgetdan tashqari mablag'lardan samarali foydalanilishini ta'minlaydi.

Xodimlar va/yoki bemorlar tomonidan Markaz mol-mulkiga ehtiyotsizlik natijasida yoki qasddan zarar yetkazilgan yoki talon-taroj qilish holatlari aniqlanganda, zararlarni intizomiy yoki fuqarolik tartibida undirish yoxud jinoyat qonunchiligi normalariga muvofiq aybdor shaxslarni javobgarligini ta'minlab qoplash choralari ko'radi.

6-bob. Markazning moliya-xo'jalik faoliyati

17. Markaz faoliyatini moliyalashtirish respublika budgeti mablag'lari, xo'jalik faoliyatidan va shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan mablag'lar, xalqaro moliyaviy institutlar, xorijiy tashkilotlar, donor mamlakatlar va tashkilotlar grantlari, shuningdek, homiylik xayriyalari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

18. Markazdagi budget va xo'jalik mablag'lari hisobidan saqlanadigan umumiy o'rinlar soni taalluqliligi bo'yicha sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya qilgan holda Agentlik tomonidan tasdiqlanadi.

19. Markaz qonunchilik hujjatlarida belgilangan moliyaviy va statistik hisobotlarni yuritadi.

20. Markazning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

21. Markazlarning shtatlar jadvali Agentlik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan kelishgan holda belgilanadigan namunaviy shtatlarga muvofiq tasdiqlanadi.

22. Markazlar shtatlar jadvalini va xarajatlar smetasini belgilangan tartibda tasdiqlaydi hamda Agentlikning hududiy boshqarmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

23. Ko'rsatiladigan pullik xizmatlarning narxlari Agentlikning hududiy boshqarmalari bilan kelishilgan holda Markazlar tomonidan tasdiqlanadi.

24. Ko'rsatiladigan pullik xizmatlardan tushgan barcha qonunchilikda belgilangan tartibda moddiy-texnika bazani mustahkamlashga hamda tashkilot xodimlarini ijtimoiy himoya qilish, xodimlar ish haqqi va moddiy rag'batlantirish tadbirlariga yo'naltiriladi.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

25. Markaz qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda qayta tashkil etiladi va tugatiladi.

26. Nizomda aks ettirilmagan masalalar yuzasidan vujudga kelgan muammoli vaziyatlar qonunchilik hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

27. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

**Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy
markazi hamda uning hududiy markazlarida reabilitatsiya xizmatlarini
ko'rsatishning vaqtinchalik
TARTIBI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Tartib Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi hamda uning hududiy markazlarida nogironligi bo'lgan shaxslarni, shu jumladan, nogironligi bo'lgan bolalarni (keyingi o'rinlarda – nogironligi bo'lgan shaxslar) reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturi asosida ularga tibbiy, ijtimoiy, kasbiy, jismoniy reabilitatsiyasini (keyingi o'rinlarda – reabilitatsiya) tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

nogironligi bo'lgan shaxs – ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to'liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxs;

nogironligi bo'lgan bolalar – barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari tufayli hayotiy faoliyati cheklanganligi munosabati bilan davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatilishiga hamda o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar;

nogironligi bo'lgan shaxsni reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturi – tibbiy-ijtimoiy ekspertiza asosida ishlab chiqilgan, nogironligi bo'lgan shaxs uchun maqbul reabilitatsiya choralari majmui bo'lib, ushbu choralar organizmning buzilgan yoki yo'qolgan funksiyalarini, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxs mehnat faoliyatining ayrim turlarini bajarish qobiliyatini tiklashga, kompensatsiya qilishga qaratilgan tibbiy, ijtimoiy, kasbiy va jismoniy reabilitatsiya choralari amalga oshirishning ayrim turlari, shakllari, hajmlari, muddatlari hamda tartibini o'z ichiga oladi;

tibbiy reabilitatsiya qilish – uch qismdan iborat bo'lib, tiklash terapiyasi, rekonstruktiv jarrohlik, protezlash va ortezlashni o'z ichiga olgan holda nogironligi bo'lgan shaxslar a'zolarining hamda organizmi tizimlarining buzilgan va (yoki) yo'qolgan funksiyalarini saqlab qolishga, qisman yoki to'liq tiklashga qaratilgan tibbiy xizmatlar majmui;

kasbiy reabilitatsiya qilish – nogironligi bo‘lgan shaxslarni kasbga yo‘naltirishga, kasbga o‘qitishga va ishga joylashtirishga, shuningdek ularning boy berilgan kasbiy bilimlari, mahorati va ko‘nikmalarini tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui;

ijtimoiy reabilitatsiya qilish – nogironligi bo‘lgan shaxslarning hayot faoliyati cheklanganligini yengib o‘tishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, ijtimoiy maqomini, o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatish, mustaqil yashash imkoniyatlarini tiklashga, shuningdek, ularni jamiyatda oilaviy hayotning odatiy sharoitlariga qaytarishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui;

jismoniy reabilitatsiya qilish – nogironligi bo‘lgan shaxslar organizmining buzilgan yoki vaqtincha yo‘qolgan funksiyalarini hamda ularning ijtimoiy va kasbiy faoliyatga bo‘lgan qobiliyatini jismoniy tarbiya va sport hamda parasport vositalari hamda usullaridan foydalangan holda tiklash (tuzatish va kompensatsiya qilish);

statsionar sharoitda reabilitatsiya – bu kecha-yu kunduz kuzatuv ostida bo‘lish, reabilitatsiya va o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan nogironligi bo‘lgan shaxslarga ko‘rsatiladigan xizmat;

ambulator sharoitda reabilitatsiya – bu kecha-yu kunduz kuzatuv ostida bo‘lishni talab etmaydigan nogironligi bo‘lgan shaxslarga ko‘rsatiladigan xizmat.

3. Reabilitatsiya tadbirlari klinik tavsiyalar va standartlarni o‘z ichiga oladigan multidissiplinar reabilitatsiya jamoasi tomonidan tuziladigan reabilitatsiyaning yakka tartibdagi dasturi (keyingi o‘rinlarda – RYTD) asosida statsionar va ambulator sharoitda amalga oshiriladi.

2-bob. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi hamda uning hududiy markazlariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni yo‘llash tartibi

4. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi hamda uning hududiy markazlari (keyingi o‘rinlarda – Reabilitatsiya markazlari)ga nogironligi bo‘lgan shaxslarni yo‘llash tumanlararo va tuman (shahar) tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari (keyingi o‘rinlarda – TIEK) tomonidan ilovaga muvofiq shaklda rasmiylashtiriladigan yo‘llanma (keyingi o‘rinlarda – yo‘llanma) asosida amalga oshiriladi.

5. Reabilitatsiya markazlari choraklik yo‘llanmalar blanklarini tegishli qismini to‘ldirgan holda har chorakning oxirgi oyi 20-sanasiga qadar tegishlilik bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari (keyingi o‘rinlarda – Hududiy TIEK)ga yuboradi.

Bunda yo'llanmalar soni:

statsionar sharoitda ko'rsatiladigan reabilitatsiya xizmatlari reabilitatsiya markazlarining yo'nalishlar kesimida koyka-o'rin sonidan kelib chiqib;

ambulator sharoitda ko'rsatiladigan reabilitatsiya xizmatlari kunlik qatnov imkoniyatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

6. Hududiy TIEKlar yo'llanmalarni qabul qilib olgandan so'ng ularni besh ish kuni ichida tegishli tumanlararo va tuman (shahar) TIEKlariga yetkazilishini ta'minlaydi.

7. TIEKlar nogironligi bo'lgan shaxslarning murojaatlariga asosan statsionar sharoitda ko'rsatiladigan reabilitatsiya xizmatlari uchun yo'llanma berish ro'yxatini (keyingi o'rinlarda – ro'yxat) shakllantiradi. Bunda:

ro'yxat murojaat qilingan paytga muvofiq navbat asosida har bir kasallik yo'nalishi va statsionar uchun alohida yuritiladi;

shaxsan murojaat qilish imkoniga ega bo'lmagan nogironligi bo'lgan shaxslardan murojaatlar ularning yashash joyiga tashrif buyurgan holda olinishi mumkin.

Ambulator sharoitda ko'rsatiladigan reabilitatsiya xizmatlari uchun yo'llanma navbatsiz rasmiylashtiriladi.

8. Ro'yxat bo'yicha navbatni shakllantirishda nogironligi bo'lgan shaxslarga quyidagi ketma-ketlikda ustunlik beriladi:

nogironligi bo'lgan bolalarda tayanch-harakat tizimi kasalliklari mavjud bo'lgan yoki birinchi marotaba protez-ortopediya moslamalari bilan ta'minlangan yoxud ushbu moslamadan foydalanishni o'rganishga muhtoj bo'lgan nogironligi bo'lgan bolalar;

birinchi marotaba protez-ortopediya moslamalari bilan ta'minlangan hamda ushbu moslamadan foydalanishni o'rganishga muhtoj bo'lgan shaxslar;

reabilitatsiya samaradorligi mavjud bo'lgan shaxslar;

qayta tibbiy ko'rikdan o'tish muddati 3 oydan kam qolgan shaxslar;

Markazga oldin yo'llanma rasmiylashtirilganiga 1 yildan oshgan shaxslar.

TIEK raislari mazkur Tartibga muvofiq navbatga qat'iy rioya qilgan holda ro'yxat shakllantirilishiga va yo'llanma rasmiylashtirilishiga mas'ul hisoblanadi.

9. Yo'llanmalarni rasmiylashtirish uchun nogironligi bo'lgan shaxsdan hujjatlar talab etilmaydi.

10. Ro'yxat bo'yicha navbati kelgan nogironligi bo'lgan shaxsga mazkur Tartibga ilovaga muvofiq shakldagi TIEK tomonidan yo'llanma rasmiylashtiriladi.

Yo'llanma rasmiylashtirilgan kundan boshlab bir oy davomida amal qiladi.

Yo'llanma rasmiylashtirilgandan keyin bir oy davomida murojaat qilingan hamda reabilitatsiya markazida bo'sh o'rinlar bo'lmagan holatlarda yo'llanmaning amal qilish muddati tegishli reabilitatsiya markazi tomonidan 15 kunga uzaytirilishi mumkin.

11. Belgilangan oyda rasmiylashtirmasdan qolgan yo'llanmalar blanklari, sabablari ko'rsatilgan holda tegishli Hududiy TIEK raisi tomonidan hisobdan chiqariladi hamda 10 kun muddatda bu to'g'risida tegishliligi bo'yicha reabilitatsiya markaziga yetkaziladi.9. Quyidagilar yo'llanmalarni rasmiylashtirish va reabilitatsiya markaziga qabul qilishga qarshi tibbiy ko'rsatmalar hisoblanadi:

- sil kasalligi (A15-A19);
- onkologik kasalliklar (C00-C97; D21, D31-D33, D35-D48);
- ko'z kasalliklari (H00-H59);
- teri-tanosil kasalligi (L00-L99);
- ruhiy kasalliklar, shizofreniyaning har qanday turi, shu bilan birga, aqliy zaiflikning o'rta va og'ir darajasi (F00-F99);
- epistatus holatlar (G41.0-G41.9);
- irsiy kasalliklar (Q00-Q99) (Shtryumpel kasalligi va rivojlanuvchi mushaklar distrofiyalari bundan mustasno);
- kasalliklarning aktiv, dekompensatsiya va terminal bosqichlari;
- shoshilinch va intensiv (reanimatsion) tibbiy yordamga muhtojlik bo'lgan holatlar;
- chuqur ifodalangan tetraparez va tetraplegiyalar;
- parkinsonizmning ifodalangan darajadagi titroq regid shakli;
- ifodalangan darajali miyacha ataksiyasi;
- tarqoq sklerozning ifodalangan serebrospinal shakli;
- bosh miya va orqa miyadagi jarrohlik amaliyoti o'tkazilgan nogironligi bo'lgan shaxslar 3 oygacha bo'lgan muddatda;
- palliativ tibbiy yordamni talab qiluvchi holatlar;
- narkomaniya, alkogolizm va toksikomaniyaning barcha turlari;
- mushak to'qimasigacha tarqalgan va asoratlangan yotoq yaralar;
- har qanday sababli kaxeksiya holatlari;
- yurak ritmini barcha turdagi buzilishi;
- miokarditlar faol fazasi, SYE II/FS, III-IV NYHA va kardiomiopatiyalar SYE I-IIA/FS, I-III daraja NYHA (ExoKGda FV <45%);
- jigar sirrozi hamda portal gipertenziya, assit va qon ketish bilan kechishi;
- kamqonlikning og'ir darajasi (gemaglobin miqdorining <60 gramm/litr);

nafas yetishmovchiligi 3 daraja, surunkali o'pka-yurak dekompensatsiya holatlari, tez-tez astma statusi kuzatilishi;

surunkali buyrak yetishmovchiligi 3-4 darajasi;

osteomiyelit xuruj davri;

tana haroratining 38°C va undan yuqoriligi.

3-bob. Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi hamda uning hududiy markazlarida statsionar va ambulator sharoitda reabilitatsiya xizmatlarini ko'rsatish tartibi

12. Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun quyidagi bo'limlarda statsionar xizmat ko'rsatiladi:

Ichki organlar kasalliklarini tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'limi (terapiya);

Umurtqa pog'onasi kasalliklarini tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'limi (vertebrologiya);

Asab kasalliklarini tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'limi (nevrologiya);

Protezlash bo'limi;

Jarohatlar oqibatlarini tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'limi (bolalardagi ortopedik kasalliklarni reabilitatsiya qilish ushbu bo'lim tomonidan amalga oshiriladi).

13. Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash hududiy markazlarida statsionar reabilitatsiya xizmatlari quyidagi bo'limlarda ko'rsatiladi:

Tayanch harakat tizimi kasalliklari reabilitatsiyasi bo'limi;

Neyro-reabilitatsiya bo'limi;

Somatik reabilitatsiya bo'limi (bolalarda reabilitatsiya qilish ushbu bo'lim tomonidan amalga oshiriladi).

14. Markazda nogironligi bo'lgan shaxslarga reabilitatsiya xizmatlarini ko'rsatish hajmi va muddati uning tibbiy, ijtimoiy va jismoniy reabilitatsiya tadbirlariga muhtojlik darajasi, reabilitatsiya samaradorligi, nogironlikka olib kelgan asosiy kasallikning kechishi, og'irligi, asoratlarini inobatga olgan holda nogironligi bo'lgan shaxslarni tibbiy, ijtimoiy, jismoniy va kasbiy reabilitatsiya qilish standartlariga muvofiq individual ravishda belgilanadi.

Bunda, nogironligi bo'lgan shaxslar Markazda bo'lish muddati 12 kundan oshmasligi lozim.

15. Markazga qabul qilish uchun quyidagi hujjatlar talab etiladi: rasmiylashtirilgan yo'llanma;

pasport (nogironligi bo'lgan bolalar uchun tug'ilganlik haqidagi guvohnoma);

ambulator kartasidan ko'chirma.

16. Ambulator xizmat o'z ichiga quyidagilarni oladi:

bemorning rehabilitatsiya holati va uning dinamikasini baholash;
funksional holat va hayotiy faoliyat cheklanishini hisobga olgan holda rehabilitatsiya tashxisini belgilash;

rehabilitatsiya salohiyatini baholash;

rehabilitatsiya tadbirlari maqsad va vazifalarini shakllantirish;

RYTD tuzish va amalga oshirish;

RYTD tadbirlarining samaradorligini baholash;

rehabilitatsiya epikrizini tuzish;

hisob va hisobot hujjatlarini yuritish.

17. Ambulator bo'lim o'z faoliyatini amalga oshirishda tashkilot tarkibidagi davolash-tashxis va yordamchi bo'linmalar imkoniyatlaridan foydalanadi.

4-bob. Nogironligi bo'lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi hamda uning hududiy markazlarida ko'rsatilayotgan rehabilitatsiya xizmatlarining samaradorligini baholash tartibi

18. Markazda ko'rsatilayotgan rehabilitatsiya xizmatlarining samaradorligini baholash maqsadida yo'llanmalar rasmiylashtirilishi, shuningdek, rasmiylashtirilgan yo'llanmalar asosida tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya xizmatlari ko'rsatilgan nogironligi bo'lgan shaxslar, shu jumladan, nogironligi bo'lgan bolalarda kuzatilgan rehabilitatsiya samaradorligi to'g'risidagi tahliliy ma'lumotlar har chorak oxirgi oyining 20-kuniga qadar Hududiy TIEK tomonidan tegishli Markazga taqdim etib boriladi.

Taqdim etilgan ma'lumotlar Markaz tomonidan o'rganib chiqiladi hamda yo'llanmalardan maqsadli va samarali foydalanish, Markazda nogironligi bo'lgan shaxslarga samarali tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya xizmatlarini ko'rsatish yuzasidan TIEK hamda sog'liqni saqlash tizimiga qarashli davolash-profilaktika muassasalari bilan hamkorlik ishlarini kuchaytirish bo'yicha choralar ko'riladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

19. Tartibda aks ettirilmagan masalalar yuzasidan vujudga kelgan muammoli vaziyatlar qonunchilik hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

20. Ushbu Tartib talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

**NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNI
REABILITATSIYA QILISH VA PROTEZLASH MARKAZIGA**

_____ — sonli yo'llanma

1. Rasmiylashtiriladigan bo'lim nomi _____
2. Rasmiylashtiriladigan oy va yil _____
3. Yo'llanma rasmiylashtirilgan sana (kun, oy, yil) _____
4. Reabilitatsiya turi: ☐ ambulator ☐ statsionar
(keraklisi belgilanadi)
5. Nogironligi bo'lgan shaxs (bola)ning F.I.Sh. _____
6. Tug'ilgan yili (kun, oy, yil) _____
7. Yashash manzili: _____
8. Tashxisi: _____
9. Nogironlik guruhi va sababi: _____
10. Nogironlikni tasdiqlovchi hujjat seriyasi va raqami: _____
11. Nogironlik muddati _____ dan _____ gacha
(kun, oy, yil) (kun, oy, yil)
12. Nogironligi bo'lgan shaxsning telefon raqami: _____

13. Markaz bosh shifokorining F.I.Sh

14. Yo'llanmani rasmiylashtirgan TIEK
raisining F.I.Sh

imzo, muhr

imzo, muhr

Markazning ma'lumot uchun telefon
raqamlari

(Yo'llanma rasmiylashtiriladigan
bo'limlarning nomi va telefon
raqamlari yoziladi)

Yo'llanmani rasmiylashtirgan TIEKning
nomi va telefon raqami

Eslatma: Yo'llanmaning 1-2-bandlari hamda 13-band Markaz tomonidan to'ldiriladi.
3-12 bandlar hamda 14-band TIEK tomonidan to'ldiriladi.

TIEK tomonidan nogironligi bo'lgan shaxs (bola) yoki uning vakiliga Markazga murojaat
etishning muddatiga aniqlik kiritish yuzasidan yo'llanmada ko'rsatilgan telefon raqami orqali
bog'lanish to'g'risida tushuntiriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxs yoki uning vakili Markazga murojaat etishning muddatiga
aniqlik kiritish yuzasidan yo'llanmada ko'rsatilgan telefon raqami orqali bog'lanishi lozim.